

TO‘QIMACHILIK KLASSTERLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA VERTIKAL INTEGRATSIYA STRATEGIYALARINI QO‘LLASH

Yusupova Nafisa Vaxidovna

Alfraganus universiteti, Menejment va
marketing kafedrası tadqiqotchisi
nafisayusupova@mail.ru

Annotatsiya

Mazkur maqolada to‘qimachilik klasterlari raqobatbardoshligini oshirishda vertikal integratsiya strategiyalarini qo‘llash bo‘yicha taklif va tavsiyalar ilgari surilgan. “Xarajatlar-samaradorlik” metodologiyasining eng maqbul darajasiga ko‘ra xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar ishlab chiqarish faoliyatining vertikal integratsion o‘zaro munosabatlarni samarali boshqarish bo‘yicha takliflar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: to‘qimachilik, sanoat, korxona, paxta, tola, mato, tayyor mahsulot, vertikal integratsiya, strategiya.

Аннотация

В данной статье представлены предложения и рекомендации по использованию стратегий вертикальной интеграции в повышении конкурентоспособности текстильных кластеров. По наиболее оптимальному уровню методологии «затраты-эффективность» выдвинуты предложения по эффективному управлению вертикально-интегрированными взаимодействиями производственной деятельности хозяйствующих субъектов.

Ключевые слова: текстильная промышленность, промышленность, предприятие, хлопок, волокно, ткань, готовая продукция, вертикальная интеграция, стратегия.

Abstract

This article presents proposals and recommendations for the use of vertical integration strategies in increasing the competitiveness of textile clusters. According to the most optimal level of the "cost-efficiency" methodology, proposals for effective management of vertical integrated interactions of production activities of economic entities have been put forward.

Keywords: textile, industry, enterprise, cotton, fiber, fabric, finished product, vertical integration, strategy.

KIRISH

Iqtisodiyotni yanada barqaror rivojlanishi uchun ilmiy-texnik taraqqiyotni jadallashtirish, boshqarish tizimi va xo‘jalik mexanizmini takomillashtirish, xom ashyoni tayyor mahsulot holatida to‘liq qayta ishlash asosida sanoatning samarali rivojlanish sur‘atlarini o‘sishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda oxirgi 15-20 yil ichida to‘qimachilik sanoatini rivojlanishida sezilarli o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Iqtisodiyotning globallasuvi natijasida to‘qimachilik

ishlab chiqarish markazi Yevropa va AQSHdan uchinchi dunyo mamlakatlari, xususan, Janubiy-Sharqiy, Markaziy Osiyo, Janubiy Amerika davlatlariga ko'chdi. Bloomberg agentligining ma'lumotlariga ko'ra "2022-yilgi quruq ob-havo natijasida ko'plab paxta berishi mumkin bo'lgan dalalar qurib qolgan, natijada dunyoda paxtaning o'rtacha narxi 30 %ga, mato va kiyim-kechak mahsulotlarining narxi 20-30 %ga oshdi". Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yillik yalpi ichki mahsulot darajasi past bo'lgan aksariyat rivojlanayotgan davlatlarda to'qimachilik sanoati jadal rivojlanayotgan bir paytda, daromad darajasi o'rtacha bo'lgan davlatlar esa o'zlarini, shuningdek yaqin mintaqaviy bozorlarni ham to'qimachilik mahsulotlari bilan ta'minlayaptilar.

Bu borada iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish, institutsional o'zgarishlarni amalga oshirish, to'qimachilik klasterlarini tashkil etish va boshqarishning tegishli strukturasini yaratish, vertikal integratsiya strategiyasini tatbiq etish ham katta ahamiyatga ega. Mavjud to'qimachilik korxonalari yigirish-to'qish, yigirish-trikotaj, yigirish-to'qish-pardozlash yoki trikotaj-tikuv korxonalari ko'rinishida alohida-alohida tashkil etilgan, mavjud qo'shma korxonalar ham yuqori keltirilgan shaklda tashkil etilib, faoliyat ko'rsatmoqda.

O'zbekiston to'qimachilik sanoatini rivojlantirish, uning raqobatbardoshligini ta'minlash, tarmoq eksport salohiyatini oshirish borasida hukumatimiz tomonidan bir qator huquqiy-me'yoriy hujjatlar qabul qilingan bo'lishiga qaramasdan, muammolar saqlanib qolmoqda. Dunyo bozorida raqobat tobora keskinlashib borayotgan hozirgi davrda korxonalarni rekonstruksiya qilmasdan, zamonaviy ilg'or texnologiya bilan jihozlamasdan, ishlab chiqarilayotgan mahsulot turlarini yangilamasdan turib, ularning iqtisodiy va moliyaviy barqarorligini ta'minlash mumkin emas.

Ayniqsa, xom ashyodan tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi to'qimachilik klasterlarini tashkil etish, ya'ni paxtani dastlabki ishlash, yigirish-to'qish-trikotaj, pardozlash, tikuv korxonalari ko'rinishida, ularni yagona ma'muriy boshqarish ko'rinishida tashkil etish va boshqarish bugungi kunda to'qimachilik sanoatini rivojlantirishda ko'ndalang qilib qo'yilmoqda.

To'qimachilik klasterlari tarkibiga kiruvchi korxonalarning faoliyatini tashkil etish muammolari mavjud korxonalarda qanday texnologik jarayonni joriy etish, ularda xom ashyoni qayta ishlash tartibi, ishlab chiqarilayotgan yarim tayyor va tayyor mahsulotlarning sifati, resurslar sarfi darajasi to'g'risidagi ma'lumotlar amaliy tajriba asosida olinishi bilan birga, ularga nisbatan ilmiy asoslangan yondashuvlar ishlab chiqilishini taqozo qiladi.

Paxta tolasidan xom ip, to'qima, trikotaj mahsulotlari va matosi, pardozlangan to'qima va tayyor tikuvchilik buyumlarigacha ishlab chiqarishga erishish, chet el investitsiyalarini jalb etishda, to'qimachilik klasterlarini tashkil etishda vertikal integratsiya strategiyasini ishlab chiqish muammolari hozirgi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

To'qimachilik klasterlarini tashkil etish va ularni boshqarishda vertikal integratsiya strategiyasini ishlab chiqish raqobat muhiti sharoitida bozorda o'z

mavqega ega bo'lishga intilayotgan korxonalar uchun zaruriy shartlardan biri hisoblanadi.

Mazkur muammoning nazariyasi va uslubiyoti ko'pgina iqtisodchilar va mutaxassislar tomonidan keng o'rganilgan. Jumladan, A.Marshall, B.Aharonson, D.Barkley, R.Basant, H.Fallah, R.Johnston, C.Ketels, M.Porter, S.Rosenfeld klasterlarni rivojlanishiga o'zlarining hissalarini qo'shishgan.

To'qimachilik va yengil sanoat korxonalarini hamda klasterlarni tashkil etish samaradorligini oshirish va boshqaruvini takomillashtirish masalalari bo'yicha bir qator rossiyalik iqtisodchi olimlardan A.Afanasyeva, V.Afanasyev, D.Bayeva, A.Gudjalov, P.P.Koketkin, Ye.L.Smirnov, B.A.Buzov, V.A.Nikitin, A.N.Solovyev, N.Bagautdinova, V. Bepalov, D.Galimov, I.Gul'iy, K.Dalinchuk, I.Korabeynikov, B.Kleyner, V.Lizunov, S.Metelev, O.Romanova, A.Solovyev, S.Solskiy, V.Tretyak va boshqalar katta hissa qo'shganlar.

Mamlakatimizning yetakchi iqtisodchi olimlari I.Iskandarov, S.Ziyadullayev, A.Xudkovskiy, T.Shabazova, M.Kattaxo'jayev, M.Marupov, S.Qosimov, D.Karimova, B.Rizayev, D.Serikbayeva, D.Nosirxo'jayeva, A.Bekmurodov, V.Zaripov, N.Maxmudov, M.Raxmatov, B.Rizayev, B.Salimov, M.Tillyaxodjayev, S.Qosimov, Z.Xakimov, R.Xalikova, K.Xonkeldiyeva, F.Azimova, M.Boltaboyev, R.Isayev, G.Madraximova, A.Razikov, B.Tursunov, M.Xudoykulov, S.Yusupov, U.Yusupov va boshqa bir qator olimlar ilmiy ishlarida iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlarida klasterlarni boshqarishning nazariy va uslubiy asoslari, sanoatning yetakchi tarmoqlaridan bo'lgan paxta-to'qimachilik tarmog'ida ishlab chiqarishni tashkil etish, tarmoqning raqobatbardoshligini, eksport salohiyatini oshirish masalalari atroflicha tadqiq etilgan.

Biroq, to'qimachilik sanoatida ishlab chiqarish klasterlarini tashkil etishda vertikal integratsiya strategiyasini ishlab chiqarishning kam o'rganilganligi va uning dolzarbligi mazkur mavzuda tadqiqot bajarilishining zaruriyati mazkur tadqiqot mavzusini belgilab berdi.

METODOLOGIYA

Tadqiqotda tizimli va qiyosiy tahlil, boshqaruv qarorini qabul qilishga yondashuv, statistik tahlil va sintez, taqqoslash, tasniflash, SWOT-tahlil usullaridan foydalanildi.

To'qimachilik sanoatida vertikal integratsiyalashgan ishlab chiqarish klasterlarini tashkil qilishda ularning barqaror rivojlanishini tavsiflovchi mezonlar va ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqish zarur.

Iqtisodiy adabiyotlarda iqtisodiy tizimlar, shu jumladan klasterlar samaradorligini baholashning eng keng tarqalgan usullari "xarajatlar-samaradorlik" usuli hisoblanadi. Ushbu usulga ko'ra, tizim samaradorligi ishlab chiqarish resurslaridan to'liqroq foydalanish bilan ta'minlanadi va tizim samaradorligining uni rivojlantirish xarajatlariga nisbati sifatida baholanadi.

Ko'pgina mualliflar ushbu usul yordamida samaradorlikni hisoblash uchun ajralmas ko'rsatkichlar sifatida loyihani amalga oshirish uchun foyda va xarajatlar qiymatlaridan foydalanadilar[108]. Bundan tashqari, qo'shilgan qiymatning o'sishi va

xarajatlarning o‘sishi ko‘rsatkichlari qo‘llaniladi, chunki foydaning bir qismi klasterlarni shakllantirishni moliyalashtirish uchun ishlatilishi mumkin, bu esa uni tahlildan chiqarib tashlaydi.

“Xarajatlar-samaradorlik” metodologiyasining eng maqbul variantlari — bu klaster samaradorligini xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning o‘zaro munosabatlarida ta’sir paydo bo‘lgunga qadar bo‘lgan bazaviy davrlar bilan yoki klaster shakllanishi paydo bo‘lgunga qadar tarmoq faoliyati bilan solishtirganda baholash variantidir. Shunga o‘xshash usul rus olimlari tomonidan ishlab chiqilgan, klaster shakllanishini baholash bilan bog‘liq xolda, uni quyidagi shaklda berish mumkin.

$$FS_k = \frac{M_0 + \sum_{i=1}^n \pm \Delta M_i + \sum_{i=1}^n \pm \Delta C_i}{X_0 + \sum_{i=1}^n \pm \Delta K_i} - \frac{M_0 \pm \Delta M_0 \Delta C_0}{X_0 \pm \Delta K_0} = \frac{M_{н/ч}}{X_{н/ч}} \quad (1.1)$$

Bu erda FS_k - klasterlarning kamaytirilgan faoliyati samaradorligi;

$M_{i/ch}$ - ishlab chiqarish natijasining pasayishi;

$X_{i/ch}$ - bir martalik xarajatlarni kamaytirish;

M_b - bazis yilida klasterlarning o‘rtacha yillik ishlab chiqarishi hajmi;

X_b - bazis yilida klasterlarning o‘rtacha yillik yillik xarajatlari;

$\pm \Delta M_i$ - klasterlarni rivojlantirish bo‘yicha i -faoliyatning mavjudligi bilan bog‘liq xolda ishlab chiqarish xajmi bo‘yicha ushbu variantning bazis variantdan farqi;

$\Delta M_0 = \sum_{i=1}^n \pm M_i$ - n -sonida klasterlarni rivojlantirish bo‘yicha i -faoliyatni amalga oshirish tufayli ishlab chiqarish xajmi bo‘yicha ushbu variantning bazis variantdan farqi;

$\pm \Delta S_i$ - klasterlarni rivojlantirish bo‘yicha i - faoliyatining mavjudligi sababli joriy xarajatlar bo‘yicha ushbu variantning bazis variantlardan farqi. Bunda ΔS_i ning musbat qiymati operatsion xarajatlarni kamaytirishga, ΔS_i ning manfiy qiymati esa ularning oshishiga mos keladi;

$\Delta S_0 = \sum_{i=1}^n \pm \Delta S_i$ - n miqdorida amalga oshirilgan tadbirlar tufayli bir xil.

$\pm \Delta K_i$ - i -tadbirini amalga oshirish orqali klasterlarning ushbu versiyasi va bazisi o‘rtasidagi bir martalik xarajatlar bo‘yicha farqi;

$\Delta K_0 = \sum_{i=1}^n \pm \Delta K_i$ - n miqdorida amalga oshirilgan tadbirlari hisobiga.

Mazkur uslub ko‘proq vertikal integratsiya doirasidagi munosabatlarni tavsiflaydi va klaster ichidagi sinergiya samarasining paydo bo‘lishining o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettirmaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Maqolada to‘qimachilik klasterlarini tashkil etishda vertikal integratsiyani qo‘llash hamda samaradorligini oshirish yo‘llari tadqiq etilgan.

Vertikal integratsiya nazariyasi rivojlanishining yo‘nalishlari asoslangan:

integratsiyani, bir tomondan allokativ samaradorlikni oshirish imkoniyatlari bilan, ikkinchi tomondan esa potensial raqobat yo‘liga chiqishga to‘sqinlik qilish bilan bog‘lovchi noklassik nazariya;

vertikal integratsiyani transaksion xarajatlarni qisqartirishda, bajaruvchilar xatti-harakatini boshqarish muammolari va ularda mulkka egalik qilish huquqini taqsimlashga ta’sir qilishda ko‘rib chiquvchi institutsional tahlil;

vertikal integratsiyani foydali biznesni tashkil qilish quroli sifatida tahlil qilishga asoslangan ishlab chiqarish – tarmoq yondashuvi;

vertikal integratsiyaning moliya oqimlari va firmaning bozor baholanishi samaradorligiga ta'sirini tahlil qilishga asoslangan korporativ moliyalar nazariyasi; boshqa bir qator alternativ yondashuvlar.

Vertikal integratsiya formasini tanlash sabablari tadqiq etilgan.

Vertikal integratsiya jarayonining formasiga ko'ra :

texnologik zanjir bo'yicha "oldinga" yoki "yuqoriga" integratsiyasi (ketma-ket integratsiyalash) – ya'ni, keyingi texnologik operatsiyalar korxonalari bilan birlashish (paxtaga dastlabki ishlov berishdan boshlab, to tayyor tikuvchilik mahsulotlarini ishlab chiqargunga qadar);

"orqaga" yoki "pastga" integratsiyasi (texnologik jarayon nuqtai –nazaridan teskari integratsiya) – avvalgi texnologik operatsiyalar korxonalari bilan birlashishi.

Vertikal integratsiya formasini tanlash va tatbiq etish sabablarini quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin (1-jadval).

1-jadval

Vertikal integratsiya formasini tanlash sabablari

Ustunliklari	Tanlash sababi
	To'g'ri
Imkoniyatlari: - mahsulotni differentsiatsiyalash salohiyatining ortishi; - sotish hajmining kengayishi; - bozor haqida ma'lumotlar olish imkoniyatining yaxshilanishi	Distribyutorlar kompaniyaning talablarini qanoatlantirmaydilar; Faoliyat yuritayotgan distribyutor-lar va kompaniya mahsulotini sotuvchilar yuqori foizda foyda oladilar; Distribyutorlar imkoniyatlari raqobat kurashida kompaniya uchun strategik ustuvorlik yaratish uchun cheklangan; Tarmoqdagi keskin raqobat; Kompaniya o'z mahsulotining distributsiyasi uchun barcha imkoniyatlarga ega;
Butun ishlab chiqarish siklini nazorat qilishning qo'shimcha imkoniyatlari va buning hisobiga mahsulot differentsiatsiyasining qo'shimcha potensialiga erishish	Teskari Yetkazib beruvchilar kompaniyaning shartlarini qoniqtirmaydilar; Kompaniyaning yetkazib beruvchilari yuqori foizda foyda oladilar; Yetkazib beruvchilar soni raqobatchilar soniga nisbatan cheklangan; Kompaniya tez rivojlanayotgan tarmoqda raqobatlashadi va mahsulotni sotish bozorini kengaytirishni davom ettirish kutiladi; Kompaniya o'z ishlab chiqarishi uchun xom ashyo va materiallarni yetkazib berishni tashkil etish uchun barcha imkoniyatlarga ega; Kompaniya xom ashyo va materiallarni tez yetkazib berilishiga muhtoj .

Vertikal integratsiyani ta'minlovchi omillar asoslangan:

xom ashyo va materiallar yetkazib beruvchilarning cheklanganligi va bir tekis taqsimlanmasligi;

xalqaro biznesning xalqaro xarakterga egaligi;

ishlab chiqarish hajmining ortishi bilan bog'liq bo'lgan iqtisod qilishning ichki imkoniyatlari;

kompaniyada samarali menejmentning ortib boruvchi roli.

Yuqorida sanab o'tilgan omillar birgalikda to'qimachilik klasterlari orasidagi raqobat kurashini keskinlashtiradi.

Motivlar:

1. Umumiy sabablar (iqtisodiyotning boshqa sohalariga ham xos bo'lgan integratsion jarayonlar):

tugallangan yakuniy mahsulotni sotish bozorlari ustidan nazorat o'rnatishga intilish;

ishlab chiqarish hajmining ortishi bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish imkoniyatlarini ishga solish;

tranzaksion xarajatlarni minimallashtirish bilan bog'liq ustunliklar, jumladan korporatsiyalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar va aloqalarni , bozor munosabatlarini o'zgartirganda.

2. Maxsus sabablar:

tabiiy resurslarga nisbatan monopoliyani yengib o'tishga harakat;

ishonchli xom ashyo ta'minotchilariga ega bo'lish;

yirik, kapital sarf-xarajatlarni ko'p talab qiladigan loyihalarni amalga oshirish, ishlab chiqarishni tashkil qilish va sotish bilan bog'liq risklarni minimallashtirish;

to'qimachilik ishlab chiqarish sohasi aktivlarining o'ziga xos jihatlari va tor ixtisoslashtirilish xarakteri .

3. Firma ichki faoliyatining omillari:

o'zaro bog'langan texnologik jarayonlarning boshqaruvdanligi (joriy ishlab chiqarish va resurslarni taqsimlash jarayonida o'zaro aloqalar tizimini soddalashtirish nuqtai-nazaridan);

bozor mexanizmlaridan foydalanish bilan bog'liq tranzaksion xarajatlarni iqtisod qilish(shartnomalarni tuzish, kerakli ma'lumotlarni olish va boshqalar).

TAHLIL VA NATIJALAR

To'qimachilik korxonalari, mahsulot ishlab chiqarish va texnologik jarayon bo'yicha ixtisoslashgan bo'ladi, shuning uchun odatda ular yigirish, to'qish, pardoqlash korxonalari deb yuritiladi. Ba'zi korxonalarda ikkita texnologik jarayonni jamlab olish mumkin ya'ni yigirish, to'qish jarayoni, ular tayyor mahsulot ishlab chiqarmaydilar. Mahsulot ishlab chiqarishni hamma asosiy jarayonini o'z tarkibida birlashtirgan korxonalarda, yigirish korxonasida ishlab chiqarilgan xom ip yigirish korxonasi uchun tayyor mahsulot hisoblansa, to'qish korxonasi uchun yarim tayyor mahsulot hisoblanadi. Jumladan, to'qish korxonasida ishlab chiqilgan to'qima, to'qish korxonasi uchun tayyor mahsulot bo'lsa, pardoqlash korxonasi uchun yarim tayyor mahsulot hisoblanadi.

To'qimachilik klasterlari, umumiy asosiy texnologik jarayon asosida tashkil etiladi, ya'ni xom ashyo tayyor mahsulotga aylanish uchun ma'lum texnologik jarayonlardan o'tib, umumlashgan yagona siklni tashkil etadi.

To'qimachilik klasterlarini tashkil etishdan asosiy maqsad korxonalarni boshqarishni yaxshilash, takomillashtirish, ixtisoslashtirish darajasini oshirish, yordamchi xo'jaliklar faoliyatini markazlashtirish, asosiy fondlardan foydalanish darajasini yuqori bo'lishiga erishish, mavjud resurslardan samarali foydalanish evaziga, korxonaning ishlab chiqarish xo'jalik ko'rsatgichlarini yaxshilash imkonini yaratadi.

To'qimachilik klasterining texnologik jarayoni quyidagicha amalga oshiriladi:

I paxta homashyosini yetishtirish jarayoni.

1. NEW HOLLAND T7060 – traktor
2. TTZ 100 HC — traktor
3. Lemken – aylanma plug
4. "KM 180" "5" (4+1) — aylanma plug
5. Planter D4 -rusumli pnevmatik seyalka
6. KUHN-3M (6 qator) rusumli ekish seyalkasi
7. ALFA 600- shtangali purkagich
8. OVX-600 — purkagich
9. RMU-0,8 mineral o'git tarqatuvchi
10. Belarus -80x — chopiq traktor
11. SE-220 – paxta terish kombayni
12. MX-1.8 – paxta terish kombayni
13. 2PTS-4-793 — pritsepli traktor

II paxtani dastlabki ishlash oqimidagi texnologik jarayon.


1. KVM – kondensor
2. Shx –shaxta
3. UXK-tozalagich
4. UXK-tozalagich
5. Lk- lentali konveyr
6. DP- arrali jin
7. Shaxta

III. Yigirish o'qimidagi texnologik jarayon.

1. TS-03 tarash
2. TD-03 piltalash I o'tim
3. RSB-D -35 piltalash II o'tim
4. Z-668 piliklash
5. Z-350 yigirish

IV. To'qish o'qimidagi texnologik jarayon.

1. M-150 qayta o'rash
2. SP-180 tandalash
3. SHBP-180 oxarlash
4. PSM-175; UP-175 ip o'tkazish va bog'lash
5. "Toyota" to'qish
6. MKM;
7. SV -saralash, tozalash, o'lchash



To'quv ishlab chiqarishini to'qimachilik gazlamasini ishlab chiqarish, shu bilan birga trikotaj matosi va tayyor trikotaj buyumlarini ishlab chiqarish shaklida tashkil etish. Trikotaj ishlab chiqarishida to'quv ishlab chiqarishiga nisbatan unumdorlik yuqori, o'timlar soni kam, hamda trikotaj ishlab chiqarishida foyda normasi yuqori.

Shu boisdan ham, paxta-trikotaj ishlab chiqarish klasteri tarkibida trikotaj ishlab chiqarishini ham tavsiya etamiz.

XULOSA VA TAKLIFLAR

1. Vertikal integratsiya – yagona yakuniy mahsulotni ishlab chiqarish, sotish va iste'mol qilishda umumiy bog'liq korxonalarining ishlab chiqarish va tashkiliy birlashuvidir.

2. Vertikal integratsiya xom ashyo va materiallarni yetkazib beruvchilar, detallar, ularning ayrim qismlari, yarim fabrikatlarni tayyorlovchilar, tugallangan tayyor mahsulotni ishlab chiqaruvchilar, sotuvchilar va tugallangan mahsulot iste'molchilarini qamrab oladi.

3. Vertikal integratsiyaning tavsiflovchi asosiy belgilaridan biri shunda – ki, u tugallangan mahsulot ishlab chiqarishning bir necha bosqichlarini o'z ichiga oladi; kompaniya ichida ishlab chiqarish siklining zaruriy elementlarini yaratadi; kompaniyalarning ichki imkoniyatlaridan, tashqi aloqalarga nisbatan ko'proq darajada foydalanishga asoslanadi.

4. Vertikal integratsiya yagona firma chegarasida texnologik jihatdan mustaqil ishlab chiqarish, sotish va boshqa iqtisodiy jarayonlarni birlashtiradi. U o'z mohiyatiga ko'ra firma tomonidan bozor tranzaksiyalari o'rniga o'zining ichki xo'jalik operatsiyalar va ma'muriy jarayonlarning iqtisodiy masalalarini hal qilishda foydalanishni bildiradi.

5. Vertikal integratsiyaning kompaniya faoliyati samaradorligini pasayishiga olib keluvchi bir qator jihatlarini ajratib ko'rsatishimiz mumkin:

mehnat taqsimoti va ixtisoslashtirishdan voz kechish hisobiga ishlab chiqarish samaradorligining pasayishi va mahsulot birligiga to'g'ri keladigan xarajatlarning ortishi;

yakuniy, tugallangan mahsulotga talab darajasidan qat'iy nazar, butun vertikal zanjir bo'yicha ishlab chiqarish quvvatlarini ta'minlash uchun xarajatlarning zaruriy miqdoridan kelib chiqqan holda, doimiy o'zgarmas xarajatlar miqdorining yuqori darajada bo'lishi;

kompaniya tizimiga qo'shimcha ishlab chiqarish jarayoni bosqichlarini integratsiyalash uchun zarur bo'lgan investitsiyalarning qoplanish muddati uzoqligi;

bitta integratsiyalashgan kompaniyaning ayrim ishlab chiqarishlariga bozor ta'siriga ko'ra, kompaniya daromadlarining davriy o'zgarishlari bilan bog'liq biznes – risklarning ortishi;

vertikal zanjirning ayrim bosqichlarida texnikaviy taraqqiyotning bir tekis emasligi;

ishlab chiqarish zanjirining ayrim zvenolarida texnikaviy taraqqiyotning kech qolishi;

vertikal tizim ayrim zvenolarining tashqi bozor ta'siridan ajralib qolishi mumkinligi, hamda kompaniyaning ichki standartlariga mo'ljallanganligi.

6. Vertikal integratsiyaning yuqorida keltirilgan salbiy oqibatlarining oldini olish va vertikal integratsiya samaradorligini oshirish uchun quyidagi ishlarni amalga oshirishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

kompaniyaning xo‘jalik faoliyatini firma uchun yangi bo‘lgan texnologiyalar va sotish bozorlarini egallashga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlanmalari orqali boshqa kompaniyalarni sotib olish, boshqa kompaniya va tashkilotlar bilan hamkorlik qilish, korxonaning ichki salohiyati diversifikatsiyasini yaratish orqali diversifikatsiyalash;

kompaniya bo‘linmalarining bozor muhitidan ajralib qolmasligini ta‘minlash;

kompaniya tomonidan ishlatiladigan mahsulotning bir qismi bozorda sotib olinadigan, qolgan qismi esa korxonaning o‘zida ishlab chiqariladigan, qisman integratsiyalashuv.

7. Agar ishlab chiqarish ehtiyojlari hajmi hisobiga iqtisod qilishni inobatga olish uchun yetarli darajada bo‘lsa, vertikal integratsiyaning foydasi, odatda ishlab chiqarish, sotish, sotib olish, boshqarish va boshqa funksiyalarni birgalikda amalga oshirish hisobiga olinadigan turli xildagi xarajatlarni iqtisod qilish bilan bog‘liq bo‘ladi:

birinchidan, operatsiyalarni birlashtirilishi hisobiga iqtisodga erishilishi mumkin;

ikkinchidan, ichki nazorat va koordinatsiya sohasida iqtisodga erishilishi mumkin;

uchinchidan, kerakli ma‘lumotlarni olish, ma‘lumotlar bilan ta‘minlash sohasida iqtisodga erishilishi mumkin;

to‘rtinchidan, integratsiya bozordan og‘ishish hisobiga ham iqtisodiy samaradorlikka erishish imkonini beradi;

beshinchidan, aloqalarning doimiyligi, mustahkamligi hisobiga iqtisodga erishiladi;

ishlab chiqarishning oldingi bosqichlaridagi barqaror aloqalar mahsulotni ishlab chiqarishning keyingi bosqichlari uchun muvofiq hajmlarda ishlab chiqarilishini ta‘minlaydi;

vertikal integratsiyaning qo‘llashning foydali samaralaridan yana biri texnologik imkoniyatlarning kengayishidir;

vertikal integratsiya defitsitning murakkab davrlarida firmaga kafolatlangan ta‘minotni ta‘minlab beradi.

Yuqorida aytilganlarni tahlil qilib, shubhasiz, vertikal integratsiya kompaniyaning faoliyatini olib borishda samarali vositadir, shu bilan birga u “universal” vosita emas, deb xulosa qilishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.У.Ш.Юсупов. Analysis of the State of Development and Financial and Economic Indicators of Large Enterprises, International Journal of Business Diplomacy and Economy ISSN: 2833-7468, Volume 2 | No 3 | March -2023.;

2. У.Ш.Юсупов, 2023г., Features Introduction of Information and Communication Technologies in the Activities of Large Industrial Subjects. European Journal of Business Startups and Open Society | ISSN: 2795-9228, Vol. 3 No. 3 (March - 2023): EJBSOS.;

3. Н.Қ.Йўлдошев, Д.Т.Юсупова. Бизнес ижроси ва стратегияси. Дарслик. Тошкент, “Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи”, , 2022 й. 280 б.;

4. С.Ш.Юсупов. Основные направления стратегии развития текстильных предприятий Узбекистана в условиях сильной конкуренции. Монография.» Ташкент, «Наука и технология», , 2014 г. 152 с.;
5. С.Ш.Юсупов. The innovative strategy of development of light industry of Uzbekistan. “European Journal of Economics and Management Sciences” Vienna, 2015. -№2. –Б. 44-46.;
6. А.Э.Rozikov А., Д.Т.Юсупова. Aspects of Organizing Esport-Oriented Textile Products and Export Development. International Journal of Research in Management & Business Studies. (IJRMBS 2020) Vol. , 2020 y.;
7. Д.Т.Юсупова. Background of the system quality management. International Journal of Advance and Innovative Research. Volume 6, Issue 1 (I): January - March 2019.
8. Д.Т.Юсупова. Analysis of influence factors on Uzbekistan stock market development trends. Asian journal of technology and management research. 2019 y.;
9. Barkley D. Advantages and disadvantages of targeting industry clusters /D. Barkley, M. Henry // Clemson University. - url: [http://www.cherokee.agecon.clemson.edu](http://www.cherokee.agecon.clemson.edu;).;
10. Basant R. Knowledge flows and industrial clusters / R. Basant. - url: <https://scholarspace.manoa.hawaii.edu>.;
11. Bisso R. Clusters and development strategies: reflections for a developing country's SME policy / R. Bisso // Latin American network information center. - url: <http://www.lanic.utexas.edu>. и др.
12. Caniels M. What drives innovativeness in industrial clusters? Transcending the debate / M. Caniels, H. Romijn // Technische Universiteit Eindhoven. - url: <http://www.fp.tm.tue.nl>;